

TIJORAT BANKLARIDA DIVIDENT SIYOSATINING NAZARIY ASOSLARI

Aliyev G‘ulomnozir Maxamatjonovich

Bank-moliya akademiyasi tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada tijorat banklarida dividend siyosatini nazariy jihatdan yoritish, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarga doimiy moslashish, kreditlash faoliyati uchun yangi strategiya va vositalarni ishlab chiqish, banklarning kredit risklarini samarali boshqarish, muammoli kreditlarni kamaytirish orqali banklar dividend siyosatini rivojlantirish kabi bir qancha omillarga bog‘liqligi keltirib o‘tilgan. Shuningdek, tijorat banklarining kreditlash faoliyatini ta‘minlashning dolzarbligi shubhasizdir, chunki mamlakat butun moliya tizimining muvaffaqiyatli ishlashi unga bog‘liqligi banklarda moliyaviy qarorlar qabul qilish va muammoli kreditlarni kamaytirishdagi mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha muallif yondashuvlari va takliflari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: dividend, dividend siyosati, muammoli kreditlar, bank faoliyati, banklarning kreditlash faoliyati, moliyaviy qarorlar, moliyaviy aktivlar, debitorlik, kreditorlik, nomoliyaviy aktivlar, real aktivlar, pul mablag‘lari, bankning moliyaviy strategiyasi, bankning moliyaviy xavfsizligi, strategik boshqaruv.

Аннотация

В статье раскрываются теоретические аспекты дивидендной политики коммерческих банков, акцентируется внимание на ее адаптации к социально-экономическим условиям. Рассматриваются стратегии управления кредитным риском, снижение уровня проблемных кредитов и их влияние на дивидендную политику. Особое внимание уделено актуальности кредитной деятельности банков как основы финансовой стабильности страны. Также приведены авторские предложения по совершенствованию принятия финансовых решений и решению проблем с проблемными активами.

Ключевые слова: дивиденд, дивидендная политика, проблемные кредиты, банковская деятельность, кредитование, финансовые решения, финансовые активы, дебиторская задолженность, кредиторская задолженность, нефинансовые активы, реальные активы, денежные средства, финансовая стратегия банка, финансовая безопасность, стратегическое управление.

Abstract

This article explores the theoretical foundations of dividend policy in commercial banks, emphasizing its alignment with evolving socio-economic conditions. It highlights the importance of managing credit risks, reducing non-performing loans, and developing new strategies to enhance dividend distribution. The study underlines the crucial role of lending in ensuring financial system stability. Furthermore, it presents the author's proposals for improving financial decision-making and addressing problematic assets in banking operations.

Keywords: dividend, dividend policy, non-performing loans, banking operations, lending activities, financial decisions, financial assets, accounts receivable, accounts

payable, non-financial assets, real assets, cash flows, bank financial strategy, financial security, strategic management.

KIRISH

Ma'lumki, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tashkil etish yoki kengaytirish maqsadida investorlarning mablag'larini jalb qilishning turli usullari mavjud. Jumladan, bunda bozor iqtisodiyoti sharoitida kreditlardan tashqari, ulush va qarz munosabatlarini ifodalovchi qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish orqali mablag'larni jalb qilish mumkin bo'ladi. Investitsiyalarni jalb qilish esa o'z navbatida aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan investitsion jozibadorlikni doimiy ravishda oshirib borishni taqozo etadi. Ushbu maqsadga erishishda aksiyadorlik jamiyatining daromadlilik, rentabellik darajasi, likvidlilik ko'rsatkichlari, emission siyosati, dividend siyosati va boshqa shu kabi omillar bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillarning barchasi ham alohida ahamiyatga ega, lekin biz ulardan dividend siyosatini alohida ajratib ko'rsatmoqchimiz, chunki nazarimizda aynan dividend siyosati, uni optimallashtirish masalalari korporativ moliyaviy boshqaruv strategiyasining muhim qismi bo'lib, investitsion faoliyat va kapitaldan foydalanish jarayonlariga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

Shunday qilib, iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayonida tijorat banklari o'zlarining dividend siyosatini faol rivojlantirmoqdalar, bu esa iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va jamiyat farovonligini oshirishga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida, "bank sohasidagi hozirgi holat tahlili bank sektorida davlatning yuqori darajadagi aralashuvi, davlat ishtirokidagi banklarda menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi, iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning past darajasi kabi bank sektorini iqtisodiy yangilanishlar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan qator tizimli muammolar" mavjudligi ko'rsatib o'tildi [1].

Xususan, dividendlar — bu bankning aksiyalariga investitsiya kiritganliklari uchun investorlarni mukofotlash usuli hisoblanadi. Dividendlar investor portfelining daromadlilikini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Dividendlarni to'lash mexanizmlari va ularning ahamiyatini tushunish investorlarga ko'proq asoslantirilgan qarorlar qabul qilishda va moliyaviy bozorlarda muvaffaqiyatli strategiyalarni ishlab chiqishda yordam beradi.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tishimiz kerakki, dividend siyosatisiz oqilona shakllantirilgan investitsion siyosatni tasavvur etib bo'lmaydi, chunki, mavjud imkoniyatlar sharoitida investor nafaqat aksiyalar kursidagi ijobiy farq hisobiga daromad keltiruvchi aksiyadorlik jamiyatini ma'qul ko'radi, balki dividend shaklida barqaror foyda keltiruvchi aksiyadorlik jamiyatini ham afzal ko'rishi, tabiiy hol.

ADABIYOTLAR SHARHI

Dividend siyosati, uning turli jihatlari ko'plab mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganib kelinmoqda. Mavzuga bo'lgan bunday e'tibor bir qator

omillar bilan belgilanadi. Fikrimizcha, ularning asosiylari iqtisodchi olimlar Dj.K.Shim va Dj.G.Sigel tomonidan shakllantirilgan bo‘lib, ularning ta’kidlashicha:

“birinchidan, dividend siyosati investorlar bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatlarga ta’sir ko‘rsatadi. Aksiyadorlar dividendlarni muntazam kamaytiradigan aksiyadorlik jamiyatlariga salbiy munosabatda bo‘lishadi, chunki, ular bu pasayishni aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy qiyinchiliklari bilan bog‘lashadi, buning natijasida ular o‘z aksiyalarini sotishi va mazkur holat o‘z navbatida aksiyalar bozor narxini tushib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin;

ikkinchidan, dividend siyosati aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy strategiyasiga va kapital qo‘yilmalar byudjetiga ta’sir qiladi;

uchinchidan, dividend siyosati aksiyadorlik jamiyatining pul oqimiga ta’sir ko‘rsatadi. Likvidlilik darajasi yuqori bo‘lmagan aksiyadorlik jamiyatlari dividend to‘lovlarini cheklashga majbur bo‘lishi mumkin;

to‘rtinchidan, dividendlar foydadan to‘langanligi sababli aksiyadorlik kapitalini kamaytirish xususiyatiga ega. Natijada, qarz kapitalini aksiyadorlik kapitaliga nisbati koeffitsiyentini oshishiga olib keladi” [2].

Nazariya mualliflari mukammal bozor sharoitida investorlar faqat umumiy daromadlilikdan manfaatdor bo‘ladi, uning alohida shakllaridan emas deb hisoblaydilar. M. Gordon [3] va J. Lintner o‘z asarlarida “Dividendlar to‘lash (koeffitsiyenti) oshgani sayin, aksiyadorlik kapitalining qiymati (daromadlili) kamayib boradi, chunki kapital qiymatining oshishi shaklida daromad olish dividendlar shaklida daromaddan ko‘ra riskka ko‘proq tortiladi” deb hisoblashadi. Ularning fikricha, har qanday dividend siyosati bankning qiymatiga va uning egalari farovonligiga ta’sir qilmasdan bir xil natijalarga olib keladi.

R. Litsenberger va K. Ramasvami tomonidan ilgari surilgan nazariyaga muvofiq, “Aksiyadorlar uchun dividend daromadlari emas, balki kapitalizatsiya qilingan daromadlar ustuvor ahamiyatga ega, bunga esa kapitalizatsiya qilingan daromadlar olingan dividendlarga qaraganda kamroq miqdorda soliqqa tortilishi hisoblanadi” [4].

S. Ross va S. Battacharning signal nazariyasiga ko‘ra, “Dividend siyosati orqali boshqaruv investorlarga bankning holati to‘g‘risida signal beradi, agentlik nazariyasida esa M. Jensen va U. Mekling turli boshqaruv guruhlari, bank aksiyadorlari va kreditorlar o‘rtasidagi manfaatlar to‘qnashuvlari dividend siyosati orqali bo‘lishini ifodalaydilar [5].

Dividend siyosatini aniqlab beruvchi asosiy omillardan biri bo‘lib qarz va uning sifati hisoblanadi. Agar bank ochiq bozorda ommaviy ravishda qarz olishga kirishsa, u holda Y. Fedorova va I. Lukasevichga ko‘ra “Milliy banklarda dividend olish maqsadida ular faoliyatiga investitsiya kiritish ommaviylashmoqda” [6].

O‘zbekistonlik iqtisodchi olim S. Elmirzayev tomonidan dividendlar iqtisodiy mohiyati, oqilona dividend siyosati orqali aksiyadorlik jamiyatlari erishish mumkin bo‘lgan natijalar, dividendlar tahlili masalalari atroflicha tadqiq qilingan[7].

N. Sherqo‘ziyeva esa o‘z maqolasida aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy boshqaruv tizimida dividend siyosatining rolini tadqiq qilib, dividend siyosati bo‘yicha

asosiy nazariyalar, dividend siyosati prinsiplari, dividendlarni e'lon qilish va to'lash tartibi kabilar milliy va xalqaro tajriba asosida atroflicha o'rganilgan [8].

Dividend siyosati masalalari biznes muhitida ham yuqori ahamiyatga ega. Jumladan, Moody's agentligining korporativ reytinglar boshqaruvchisi Viktoriya Maysuradzening fikriga ko'ra, "Dividend siyosati – kompaniyaning kredit reytingini aniqlashdagi asosiy faktorlardan biri hisoblanadi" [9].

Dividend siyosatidagi sezilarli o'zgarishlarga qaramasdan, u ko'p tadqiqotlar va munosabatlarning obyekti bo'lib qolmoqda. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, ayni kunda mamlakatimiz tijorat banklaridagi dividend siyosati bilan bog'liq holatlarda ham nomi keltirilgan tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlar dolzarbligini kuzatishimiz mumkin. Bu esa dividend siyosati bilan bog'liq bir nechta muqobil nazariyalarning o'zaro mos ravishda mavjud bo'lishi bilan birga, ularning aksariyati bir-biridan prinsipial farqlanishi bilan tavsiflanadi. Fikrimizcha, bunda qarashlardagi asosiy konseptual farqlanish kompaniyalar miqyosida dividend siyosatining roli va ahamiyatini turlicha talqin etilishi bilan ifodalanadi.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Mavzuni o'rganish davomida umum-iqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dividend siyosatining turini aniqlash bilan birgalikda aksiyadorlik jamiyatlarida ushbu usulni amalga oshirish jarayonining investitsion faoliyatga, investitsion jozibadorlikka ta'sirini hisobga olish zarurdir. Zero, aksiyadorlik jamiyatlarning dividend siyosati investorlar uchun fond bozorining jozibadorligini oshirishi va natijada mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga hissa qo'shishi kerak.

Respublikamizda esa davlat strategik ahamiyatga ega aksiyadorlik jamiyatlarida o'z ulushiga ega bo'lishi bilan birga, jami aksiyadorlik jamiyatlarida ham yuqori ulushni egallamoqda. Bunday holatda davlat markazlashgan yondashuvga tayanadi. Shu bilan birga Respublikamiz moliya bozori rivojlanayotgan bozor ekanligini inobatga olgan holda hamda respublikamizda davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarida o'tkazilishi rejalashtirilgan xususiylashtirish amaliyotlarini samarali amalga oshirilishiga erishilishi uchun fikrimizcha, sof foydadan dividend to'lovlariga ajratiladigan minimal chegarani belgilab olingan holda dividend siyosati yuritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'z navbatida amaliyotda dividendlarning turli ko'rinishlaridan foydalaniladi, ularni quyidagilarga ko'ra farqlashimiz mumkin:

- To'lovlar shakli.
- To'lovlar davriyligi.
- Dividendlar miqdorini aniqlash usullari.
- Aksiyalar turi.

Ma'lumki, qimmatli qog'ozlar bozorida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat ko'lamini va yo'nalishi kengayib borayotganligi hamda yangicha tushayotganligi natijasida fond bozorlari rivojlanishida ular tomonidan yuritiluvchi dividend siyosatining ahamiyatini oshishiga sababchi bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida, iqtisodchi va olimlar tomonidan optimal dividend siyosatini shakllantirish hamda uning aksiyadorlik jamiyatlari investitsion jozibadorligiga ta'sirini tadqiq etish masalalariga ko'proq e'tibor qaratilishiga undamoqda. Umuman olganda, dividend siyosatini rivojlanishi natijasida ma'lum bir nazariyalarning yuzaga kelganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Olib borgan o'rganishlarimiz natijasida dividend siyosatining asosiy nazariyalarini ikki guruhga ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Birinchi guruhga dividendlarni muhimligini inkor etuvchi nazariyalarni kiritsak, ikkinchi guruhga dividendlarni muhimligini yoqlovchi nazariyalarni kiritishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval
Dividend siyosatining asosiy nazariyalari¹

	Nazariya nomi	Nazariya asoschilari	Asosiy g'oya
Dividendlar muhimligini inkor etuvchi nazariyalar	Dividendlar irrelevantligi nazariyasi	F.Modilyani M.Miller	Nazariya asoschilari dividend siyosati kompaniya bozor qiymatiga ham, mulkdorlarning moddiy holatiga ham ta'sir etmaydi, degan g'oyani ilgari suradi.
	Soliqlar vositasidagi afzalliklar nazariyasi	R.Litsenberger K.Ramasvami	Dividend siyosati mulkdorlarning joriy davrdagi va kelgusidagi daromadlaridan soliq to'lovlarini minimallashtirish mezonini sifatida qaraladi. Shu asnoda, dividend to'lovlarini minimallashtirish va foydani reinvestitsiya qilishni maksimallashtirish jarayoni muhim hisoblanadi.
Dividendlarning muhimligini yoqlovchi nazariyalar	Dividendlarning afzalligi yoki "qo'ldagi qush" nazariyasi	M.Gordon J.Lintner	Investorlar foydani reinvestitsiya qilishdan ko'ra joriy davrdagi dividendlar ko'rinishidagi foydani afzal bilishadi.
	Dividendlarning signal nazariyasi	S.Ross	Dividendlar kompaniya istiqbollari va uning moliyaviy holati haqida investorlarga signal berish vositasi hisoblanadi.
	"Mijoz effekti" nazariyasi	M.Brennan	Kompaniya dividend siyosati investorlarning kutilmalariga asoslanadi. O'z navbatida bunda investorlar kompaniyani uning dividend siyosatini inobatga olgan holda tanlashadi.

Tijorat banklari tomonidan samarali dividend siyosatini shakllantirishda va uning investitsion jozibadorlikka ta'sir etishini oshirishda, ushbu jarayonga ta'sir etuvchi omillar bilan birga, ushbu siyosatni bir qator o'ziga xos xususiyatlari, uning imkoniyatlari ham inobatga olinishi lozim deb, hisoblaymiz. Jumladan, aksiyadorlik jamiyatining strategik maqsadlari, aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoji, aksiyadorlik jamiyatining likvidlilik ko'rsatkichi, qarz mablag'laridan foydalanish imkoniyatlari, boshqaruvni yo'qotish ehtimoli, dividend to'lovlarining

¹ Muallif ishlanmasi

barqarorligi, qo‘shimcha dividendlarni to‘lash, aksiya ko‘rinishida dividendlarni to‘lash, aksiyalarni maydalash amaliyotini qo‘llash, aksiyalarni konsolidatsiya (teskari split) qilish usulini qo‘llash va boshqalar shular jumlasidandir.

Dividend siyosatini shakllantirishning keyingi bosqichi dividend to‘lovlari hajmi va har bir aksiyaga to‘g‘ri keladigan dividend miqdorini aniqlash amalga oshiriladi. Bunda agar aksiyadorlik kapitali oddiy va imtiyozli aksiyalardan tashkil topsa, dividend to‘lovlari fondi imtiyozli aksiyalarga to‘lovlar fondi va oddiy aksiyalarga to‘lovlar fondlaridan tashkil topadi.

$$DIV_t = DIV_p + DIV_o \quad (1)$$

bu yerda,

DIV_t – dividend to‘lovlarining umumiy fondi, aksiyadorlik jamiyatlari dividend siyosati tipiga mos holda shakllantirilgan, so‘mda;

DIV_p – imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividend to‘lovlari fondi, so‘mda;

DIV_o – oddiy aksiyalar bo‘yicha dividend to‘lovlari fondi, so‘mda;

Agar aksiyadorlik kapitali faqat oddiy aksiyalardan iborat bo‘lsa, dividend to‘lovlari umumiy fondi oddiy aksiyalar bo‘yicha dividend to‘lovlari fondiga teng bo‘ladi.

Oddiy va imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividend to‘lovlari fondi kuzatuv kengashi tomonidan bildirilgan taklifga ko‘ra aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlanadi. Aksiyadorlik jamiyatlari ustavida imtiyozli aksiyalarga dividend to‘lovlari sof foyda hajmidan foiz ko‘rinishida belgilab qo‘yilishi mumkin. Bu holda imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividend quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$DPS_p = \frac{NI \cdot k}{N_p} \quad (2)$$

bu yerda,

DPS_p – bitta imtiyozli aksiyaga to‘g‘ri keladigan dividend hajmi, so‘mda;

NI – aksiyadorlik jamiyati sof foyda hajmi, so‘m;

k – sof foydaning imtiyozli aksiyalar dividend to‘lovlariga yo‘naltirilgan miqdorini ko‘rsatuvchi koeffitsiyent, bir birlikdagi ulushi;

N_p – aksiyadorlik jamiyatlari imtiyozli aksiyalari miqdori, dona.

Oddiy aksiyalar bo‘yicha dividend to‘lovlari uchun ajratma va bir dona aksiyaga dividend miqdori imtiyozli aksiyalarga dividend to‘lovlari fondini shakllantirib bo‘linganidan so‘ng belgilanadi va quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$DPS_o = \frac{DIV_t - DIV_p}{N_o} \quad (3)$$

bu yerda,

DPS_o – bir dona oddiy aksiyaga dividend miqdori, so‘mda;

DIV_t – dividend to‘lovlarining umumiy fondi, aksiyadorlik jamiyatlari dividend siyosati tipiga mos holda shakllantirilgan, so‘mda;

DIV_p – imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividend to‘lovlari fondi, so‘mda;

N_o – aksiyadorlik jamiyatlari oddiy aksiyalari soni, dona.

Dividend to'lovlari hajmi va har bir aksiyaga to'g'ri keladigan dividend miqdorini aniqlagandan so'ng dividend siyosatini shakllantirishning keyingi muhim bosqichi bu dividend to'lovlari shaklini tanlash amalga oshiriladi. Amaliyotda dividendlar odatda pul ko'rinishida to'lanadi, shu bilan birga ayrim hollarda aksiyadorlik jamiyatlari dividendlarni aksiya evaziga to'lanishi haqida e'lon qilishi mumkin. Lekin, shuni ham alohida ta'kidlab o'tishimiz kerakki, amaliyotda aksiyadorlar va investorlar uchun pul ko'rinishida dividendlarni to'lanishi eng maqbul dividend to'lovi shakli hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarida dividend siyosati iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan bir qancha muhim aspektlarni o'z ichiga oladi. Ushbu siyosat bankning moliyaviy barqarorligini, rivojlanishini va investorlar bilan munosabatlarini belgilaydi.

Dividend siyosatining nazariy jihatlarini o'rganish natijasida, ushbu siyosatni shakllashtirish, uni turli jihatlarini o'rganish, tadqiq etish bilan bog'liq izlanishlar ko'plab tadqiqotchilar tomonidan olib borilayotganligi va ularda ushbu siyosatning turli jihatlarini tadqiq etilayotganligini kuzatdik. Jumladan, dividendlarning iqtisodiy mohiyatini yoritib beruvchi, turli davlatlardagi aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini yuritishning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etuvchi, optimal dividend siyosatini shakllantirishga qaratilgan va shu kabi boshqa yo'nalishlarda bir qator tadqiqotlar (dividendlarning irrelevantligi, dividendlarning afzalligi nazariyasi, soliqlar bilan bog'liq nazariyalar, mijoz effekti nazariyasi va boshqalar) e'lon qilingan. Albatta, ushbu tadqiqotlarda optimal dividend siyosatini shakllantirish bo'yicha bir-birini ma'qullovchi natijalar olinishi bilan birga, o'zaro inkor etuvchi xulosalarga ham kelinganligini, alohida qayd etib o'tishimiz kerak.

Tadqiqotlar natijasida, dividend — aksiya egasi oladigan daromad turi bo'lishi bilan birga, u muhim ko'rsatkich ham hisoblanishi, ya'ni uning yordamida bir qator ko'rsatkichlar, shu jumladan, aksiya narxi, daromadlilik darajalari va boshqa ko'rsatkichlar aniqlanishini, olingan raqamlar esa aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy holatining indikatorini hisoblanishini, dividend siyosati esa aksiyadorlik jamiyati tomonidan sof foydaning muayyan qismini aksiyadorlarga yo'naltirishni o'zida ifodalovchi, korporativ moliyaviy boshqaruv oldidagi jiddiy masalalardan biri hisoblanib, ushbu siyosatning asosiy maqsadi aksiyadorlarning aksiyalarga yo'naltirgan investitsiyalaridan dividendlar shaklida daromad olish huquqini ta'minlashdan iborat ekanligi aniqlandi.

Shu bilan birgalikda o'rganishlarimiz natijasida, korporativ tuzilmalarning investitsion jozibadorligi dividend siyosatida ham namoyon bo'lishiga asoslandi.

O'zbekiston respublikasida dividend to'lovlarning amalga oshirish tartibi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinishi bilan birga, dividend siyosatini yuritish amaliyotining nazariy va amaliy jihatlarini yetarlicha to'liq o'rganilmaganligini, ushbu yo'nalishda tadqiqotlar juda kam olib borilganligini kuzatildi. Ushbu yo'nalishdagi dastlabki tadqiqotlar o'tgan asrning birinchi yarmida shakllana boshlangani aniqlandi. Lekin, shuni ham alohida qayd etib o'tish kerakki, shakllanishi shunday uzoq davrlarga borib taqaluvchi mazkur siyosatning optimal shakli borasida olimlar hali-hanuz bir

to'xtamga kelishmagan. Bu esa dunyo amaliyotida ko'p bora qo'llanilib, o'z tasdig'ini topgan tadqiqot natijalarini mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida investitsion jozibadorligini oshirish maqsadida optimal dividend siyosatini shakllantirish va samarali qo'llash bo'yicha ham nazariy, ham amaliy tadqiqotlar olib borilishi lozimligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, dividend siyosatining nazariy jihatlarini, uning aksiyadorlik jamiyatlari investitsion jozibadorligiga va umuman jami moliyaviy faoliyatga ta'siri yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarni o'rganishimiz natijasida shunday xulosa keldikki, aksariyat tadqiqotlarda dividend siyosati, aksiyadorlik jamiyati moliyaviy siyosatining bir bo'laki ekanligi va u o'zida sof foydani taqsimlash konsepsiyasini namoyish etishi bilan birga, aksiyadorlik jamiyati bozor qiymatini oshirish nuqtai nazaridan juda ahamiyatli ekanligi tadqiqotchilar tomonidan ta'kidlangan.

Shu bilan birga ushbu siyosatni aksiyadorlik jamiyatlarida samarali qo'llanilishi natijasida investitsion jozibadorlikni oshirishiga sabab bo'lishi uchun uni qo'llashdan avval barcha o'ziga xos-xususiyatlarni o'rganish, dividend siyosati maqsadi, vazifalari, prinsiplarini aniqlagan holda, jarayonga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish lozim. Fikrimizcha, bunda shaffoflik, muddatlilik, asoslanganlik, adolatlilik, izchillik, rivojlanish, barqarorlik kabi prinsiplarga rioya etilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/4811025>
2. Шим Джей К., Сигел Джоэл Г. Финансовый менеджмент: пер. сангл.М.: Филинь, 1996.400 с. 342 стр.
3. Gordon, M. J. Optimal investment and financing policy // The Journal of Finance. –Vol. 18. – No 2. – P. 264–272.
4. Leretit, L., Meslier, C., Strobel, F., Wardhana, L. (2018). Bank dividends, agency costs and shareholder and creditor rights. // International Review of Financial Analysis. Volume 56. – P. 93–111
5. Miller, M. H., Rock, K. (1985) Dividend Policy under Asymmetric Information // The Journal of Finance. Vol. 40. – No4. – P. 1031–1051.
6. Федорова Е. А., Лукаевич И. Я. Теории дивидендной политики и их развитие на примере Российского рынка // Финансы и кредит No 19 (595). – 2014. – С. 2.
7. Elmirezayev S. E. Dividend siyosati tashkiliy xususiyatlari va takomillashtirish masalalari. // Xalqaro moliya va hisob. No2, 2016.
8. Sherqo'ziyeva N. Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy boshqaruv tizimida dividend siyosatining o'rni. // Xalqaro moliya va hisob. No3, 2019.
9. М.Товкайло, О.Плотонова, Д.Фомченко. Минфин хочет получать дивиденды госкомпаний по МСФО. // Ведомости. — 14 май 2013 г.- 81 (3343).- стр.4.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710. ГОСТ 7.56-2002** " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**